
QUVASOYNING “SEMENTCHI” JAMOASI FUTBOLCHILARI BIRINCHI LIGA YO‘LLANMASINI QO‘LGA KIRITDILAR!



5-14 dekabr kunlari Buxoro shahrida futbol bo‘yicha havaskor va yarim professional jamoalar o‘rtasida 2022 yilgi viloyatlar, Toshkent shahar hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi birinchiliklari g‘oliblari o‘rtasida birinchi ligaga o‘tish turniri yakunlandi.

Musobaqada muvaffaqiyatli ishtirok etgan Quvasoyning “Sementchi” jamoasi futbolchilari, guruh saralash bahslarida zafar quchib, chorak finalda “Sergeli”, yarim finalda “Jizzax” jamoalari ustidan g‘alaba qozondilar. Finalga yuksalgan quvasoyliklar reglamentga ko‘ra, 2023 yilgi mavsumda O‘zbekiston chempionati birinchi ligasida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdilar.

Ikkinchi yo‘llanma sohibi Buxoroning “Nurafshon” jamoasi bilan o‘tkazilgan final uchrashuvi 1:1 hisobida yakunlandi, penaltilar bo‘yicha buxoroliklar ustun keldilar.

Eslatib o‘tamiz, Birinchi ligada o‘tgan mavsumdan beri Oltiariqning “Do‘stlik” jamoasi ham ishtirok etib keladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-12-19 14:44:24